



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 2-sinf
matematika fanidan III chorak uchun

DARS
ISHLANMALAR

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 2-sinf matematika fanidan III chorak uchun
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Kesma, nur, to‘g‘ri chiziq	1		
2.	Yassi sirtlar, tekislik	1		
3.	O‘tkir, o‘tmas va to‘g‘ri burchak	1		
4.	To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat	1		
5.	To‘g‘ri to‘rtburchakning burchaklarining xossalari	1		
6.	To‘g‘ri burchakni yasash	1		
7.	To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlarining xossalari	1		
8.	Kataklar bo‘yicha yasash	1		
9.	Yuz tushunchasi	1		
10.	Yuzlarni paletka yordamida hisoblash	1		
11.	Yuz o‘lchov birliklari	1		
12.	Masalalar yechish	1		
13.	5-nazorat ishi	1		
14.	Xatolar ustida ishlash	1		
15.	Sonlarni ko‘paytirish ko‘p marta qo‘shish sifatida	1		
16.	To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi	1		
17.	Ko‘paytirishning komponentlari	1		
18.	Ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasi	1		
19.	Bir xonali sonlarni 1 ga ko‘paytirish	1		
20.	Sonlarni 1 ga ko‘paytirish	1		
21.	2 soniga ko‘paytirish	1		
22.	2 sonini ko‘paytirish va 2 ga ko‘paytirish	1		
23.	Sonni bo‘lish. Bo‘lish komponentlari	1		
24.	Sonni 2 ga bo‘lish	1		
25.	Sonni 2 ga bo‘lish	1		
26.	Juft va toq sonlar	1		

27.	3 sonini ko'paytirish va 3 ga ko'paytirish	1		
28.	Sonni 3 ga bo'lish	1		
29.	4 sonini ko'paytirish va 4 ga ko'paytirish	1		
30.	Sonni 4 ga bo'lish	1		
31.	5 sonini ko'paytirish va 5 ga ko'paytirish	1		
32.	Sonni 5 ga bo'lish	1		
33.	Bir necha marta orttirish			
34.	Bir necha marta kamaytirish			
35.	6-nazorat ishi			
36.	Xatolar ustida ishlash			
37.	6 sonini ko'paytirish va 6 ga ko'paytirish			
38.	Sonni 6 ga bo'lish			
39.	7 sonini ko'paytirish va 7 ga ko'paytirish			
40.	Sonni 7 ga bo'lish			
41.	8 sonini ko'paytirish va 8 ga ko'paytirish			
42.	Sonni 8 ga bo'lish			
43.	9 sonini ko'paytirish va 9 ga ko'paytirish			
44.	Sonni 9 ga bo'lish			
45.	Ko'paytirish jadvali			
46.	Ko'paytirish bilan bo'lish orasidagi bog'lanish			
47.	Bo'luvchilar va karralilar			
48.	Masalalar yechish			
49.	7-nazorat ishi			
50.	Xatolar ustida ishlash			

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: To'g'ri chiziq, nur, kesma

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga To'g'ri chiziq, nur, kesma, matematikaning shakllar va ularning xossalari o'rganuvchi sohasi bilan tanishtirish, turli shakllarning xossalari aniqlash, shakllarni bir-biri bilan solishtirishni o'rgatish hamda yangi matematik amal - ko'paytirish bilan tanishtirish.

b) tarbiyaviy maqsad- matematika san'at bilan qanday bog'langanini va matematika kundalik hayotda, muloqotda va mehnat faoliyatida qanday qo'llanilishi haqida tushuncha berish, o'quvchilarda ahil jamoa bo'lib ishlash malakasini tarkib toptirish, miqdorlarni to'g'ri aniqlash ko'nikmasini shakllantirish, hozirjavoblik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi maqsad- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, tog'ri va aniq hisoblash malakasini rivojlantirish, matematik topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

tavsiya etilgan manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida berilgan statistic ma'lumotlarga asoslanib turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish;

statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turdan boshqa ko'rinishga o'tkaza olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish; muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, testlar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:


№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..


III. Yangi mavzu bayoni:

1. Rasmlarni ko'rib chiqing. To'g'ri chiziq, kesma va nurlarda qanday umumiylik bor? Ular nimalari bilan farqlanadi?




2. Chizmadan qanday kesma, nur va to'g'ri chiziqdami topish mumkin? Ularni ayting.

3. Daftaringizga rasmda ko'rsatilgani kabi nuqtalarni belgilang. AB to'g'ri chiziq va CD kesma o'tkazing. To'g'ri chiziq bilan kesma kesishadimi?



4. Peyzajning xomaki nusxasini tayyorlash uchun rassom 3 kun ishladi. Birinchi kun u 2 h 40 min, ikkinchi kun 2 h 25 min, uchinchi kun 2 h 20 min ishladi. Shu uch kunda u hammasi bo'lib qancha vaqt ishlagan?

5. Rasmda qanday chiziqlar keltirilgan?



6. a) Daftaringizga O nuqtani belgilang. Bu nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

b) Daftaringizga A va B nuqtalarni belgilang. Bu ikki nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

7. Misollarni yeching va rasmning to'liq bo'lmagan, tugallanmagan varianti yoki qismi qanday atalishini bilib oling.

A 300 + 380
R 600 - 200
U 180 + 250
T 470 - 390

S 185 + 555
L 698 - 309
CH 157 + 386



543	680	389	80	740	430	400	672
-----	-----	-----	----	-----	-----	-----	-----

8. Uch xonali sonlarni o'sib borish tartibida joylashtiring va rasmning xomaki nusxasi yana qanday atalishini bilib oling.

A (650 - 370) - 250 S (150 + 350) - 140

I (900 - 300) + 200 Z 850 + (900 - 840)

E (620 + 150) - 480 K 900 - (140 + 250)

9. Bir suratni chizish uchun 28 quti, ikkinchi surat uchun esa 12 quti ko'p bo'yoq kerak bo'ladi. Ikkinchi surat uchun necha quti bo'yoq kerak bo'ladi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yassi sirttar. Tekislik

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga Yassi sirttar. Tekislik, matematikaning shakllar va ularning xossalari o'rganuvchi sohasi bilan tanishtirish, turli shakllarning xossalari aniqlash, shakllarni bir-biri bilan solishtirishni o'rgatish hamda yangi matematik amal - ko'paytirish bilan tanishtirish.

b) tarbiyaviy maqsad- matematika san'at bilan qanday bog'langanini va matematika kundalik hayotda, muloqotda va mehnat faoliyatida qanday qo'llanilishi haqida tushuncha berish, o'quvchilarda ahil jamoa bo'lib ishlash malakasini tarkib toptirish, miqdorlarni to'g'ri aniqlash ko'nikmasini shakllantirish, hozirjavoblik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi maqsad- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, tog'ri va aniq hisoblash malakasini rivojlantirish, matematik topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

matematikaga oid atamalarning ma'nosini tushunib to'g'ri o'qiy olish;
so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;
fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish;
matematik qoidalarni ifodali ayta olish.

matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish va tegishli munosabat bildira olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish, ifodalay olish va qismlarga ajrata olish;
o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish, yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;
o'qituvchi bilan birgalikda olingan natijalarni boshqalar foydalanishi uchun oson ko'rinishda taqdim eta olish;
kundalik vaziyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish;
o'qish va yangi bilimlarni egallashga qiziq olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, testlar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:


N_o	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..


III. Yangi mavzu bayoni:

1. Bu yerda qanday hajmli jismlar tasvirlangan?



2. Yassi sirt uchburchaklardan hosil qilindi.

- a) Turli rangdagi uchburchaklardan nechtadan kerak bo'ladimi?
b) Bu sirtga hammasi bo'lib nechta uchburchak kerak bo'lgan?
d) Och qizil uchburchak sariq rangdagi uchburchaklardan nechta ko'p?
e) Bu yerda nechta kvadrat tasvirlangan?



3. Rasmlarda tekislik ko'p hollarda qog'oz varag'i ko'rinishida tasvirlanadi. Ushbu shaklni daftaringizga chizib ko'ring.

4. Naturmortli rasmning bo'yi 3 dm 5 cm, eni esa undan 1 dm qisqa. Rassom rasmni yupqa ramkaga joylashtirishni xohlaydi. Unga uzunligi 1 m bo'lgan reyka yetadimi?

5. Rasm chizish uchun ishlatiladigan bo'rlar solingan kichkina qutichada 36 rangdagi, o'rtacha qutichada esa undan 12 ta ko'p rangdagi bo'rlar bor. Agar katta qutichada kichkina va o'rtacha qutichalarda birgalikda qancha bo'lsa, shuncha bo'r bo'lsa, katta qutichada necha rangdagi bo'r bor?



6. Ifodalarning qiymatlarini kamayish tartibida joylashtiring va rangli bo'rlarda rasm chizish usuli qanday atalishini bilib oling.

A	250 + 350	L	120 + 190
S	690 - 120	E	900 - 550
P	800 - 70	T	240 + 180

7. Hisoblang.

5 yuzl. 4 o'nl. 2 birl. + 3 yuzl. 9 o'nl. 8 birl.

8 yuzl. 4 o'nl. 3 birl. - 2 yuzl. 8 o'nl. 7 birl.

4 yuzl. 3 birl. + 2 yuzl. 9 o'nl.

8 yuzl. - 4 yuzl. 2 o'nl. 3 birl.

8. Aziza gullar aks etgan naturmort chizdi. U 7 ta lolaqizg'aldoq, ulardan 3 ta kam moychechak va 8 ta ko'p atirgul rasmini chizdi. Aziza hammasi bo'lib nechta gul rasmini chizgan?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: **Zokirjon.com**

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

87 listdan iborat III chorak 2-sinf matematika fanidan konspektni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**